

“RAVSHAN” DOSTONINING “GO‘RO‘G‘LI” TURKUMIDA TUTGAN O‘RNI

Botirova Alfiya Zikir qizi
Iqtisodiyot va pedagogika
universiteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada "Ravshan" dostoni o‘rganilishining tarixi yoritiladi. Dostonning kelib chiqishi, uning turli davrlarda o‘zbek va boshqa xalqlar folklorida tutgan o‘rni, ilmiy-adabiy tadqiqotlar jarayoni tahlil qilinadi. Shuningdek, dostonning variantlari, ularni nashrga tayyorlash va tahlil qilish borasidagi ilmiy ishlanmalar ko‘rib chiqiladi. Maqolada dostonning janr xususiyatlari, mavzusi, obrazlari va uslubiyati bilan bog‘liq masalalarga ham e‘tibor qaratilgan. “Ravshan” dostonining o‘zbek adabiyoti va xalq og‘zaki ijodi taraqqiyotidagi ahamiyati, shuningdek, uning boshqa turkiy xalqlar folkloridagi o‘rni xususida xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: “Ravshan” dostoni, folklor, Go‘ro‘g‘li turkumi, epik syujet, romantizm, obrazlilik, xalq og‘zaki ijodi.

АННОТАЦИЯ В данной статье рассматривается история изучения саги «Просветленные». Будет проанализировано происхождение поэмы, ее роль в фольклоре узбекского и других народов в разные периоды, процесс научного и литературного исследования. Также рассматриваются варианты саги, их подготовка и анализ к публикации. В статье также рассматриваются вопросы, связанные с жанровыми особенностями, тематикой, образом и стилем саги. Даются выводы о значении саги «Равшан» в развитии узбекской литературы и народного творчества, а также о ее роли в фольклоре других тюркских народов.

Ключевые слова: «Просветленная» поэма, фольклор, серия «Горогулы», эпический сюжет, романс, образ, народное устное творчество.

ANNOTATION This article discusses the history of the study of the saga "Enlightened". The origin of the poem, its role in the folklore of Uzbek and other peoples in different periods, the process of scientific and literary research will be analyzed. Variants of the saga, their preparation and analysis for publication are also considered. The article also focuses on issues related to the genre features, theme, image and style of the saga. Conclusions are given about the significance of the saga "Ravshan" in the development of Uzbek literature and folk art, as well as its role in the folklore of other Turkic peoples.

Keywords: "Enlightened" poem, folklore, Goroguly series, epic story, romance, obraz, folk oral art.

Xalqimiz ijod ahli tomonidan yaratilgan dostonlar o‘zining qadimiyligi, janrlarining rang-barangligi, obrazlarining barkamolligi, g‘oyaviy-badiiy jihatdan mukammalligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, asrlar davomida xalqimiz ma’naviy tafakkurini

yuksaltirishga xizmat qilib kelayotgan Go‘ro‘g‘li va uning farzandlari (Asrandi farzandlari Hasanxon va Avazxon), nevarasi, evarasi haqidagi dostonlar bu jihatdan maqtanishga arzigulik badiiyat namunalari hisoblanadi. Doston ko‘plab turkiy va turkiy bo‘lmagan xalqlar orasida mashhur bo‘lsa-da, “O‘zbek Go‘ro‘g‘li”si boshqa xalqlar “Go‘ro‘g‘li”sidan o‘zining boqiyliqi, dostonlar xilma-xilligi, unda qahramonona o‘tmish, mislsiz romantik lavhalar orqali keng ko‘lamda tasvirlanganligi, xalq hayoti, urf-odatlar, dunyoqarashlari haqqoniy hayratomuz badiiy ifodalanganligi bilan ajralib turadi”.¹¹ Demak, dostonning katta hududda (sharqiy va g‘arbiy versiyalari) tarqalganligi, ommalashuvining bir qator o‘ziga xos sabablari bo‘lib, bular quyidagilarda ko‘rinadi. Birinchidan, dostonning turli versiya va variantlarda ommalashuvi, jonli jarayonlarda ijro etib kelinishiga ushbu xalqlarning inson va olamga estetik qarashlari natijasi o‘laroq vujudga kelgan ijod mahsuli bo‘lsa, ikkinchidan, epik syujetlarning o‘xshash va mushtaraklik xususiyatlarida xalqlarning genezisi va shajarasidagi yaqinlik, qolaversa, doston voqealariga asos bo‘luvchi g‘oyaviy maqsad shu xalqlarning tarixiy-geografik, ijtimoiy-maishiy hayotidagi o‘xshashligiga badiiy tafakkur olamidagi mushtarakliklarning chambarchasligi bilan izohlanadi. Uchinchidan, dostonchilik an‘analaridagi o‘zaro ta’sirlar va epik motivlarning universalligida ko‘rinadi.

Shundan bo‘lsa kerakki, o‘zbek bahshilari repertuarida ushbu nom ostida alohida-alohida mustaqil syujetga ega bo‘lgan doston namunalari ijro etilgan hamda turkumlik doirasida ommalashgan. Chunki doston “Ma’lum vaqtda yaratilib aslo bir yerda qotib qolmaydi, balki doimo harakatda, transformatsiyada va hokazolarda bo‘lishi” ni birgina ushbu turkumga oid dostonlarning alohida syujet va kompozitsion tugal namunalardan iborat ekanligini ko‘rib chiqish mumkin. Keyingi davrda yozib olingan va chop etilgan “Go‘ro‘g‘li” dostonlari yuzga yaqinlashganligining (Xorazm “Go‘ro‘g‘li” dostonlari bilan birga) o‘zi ham fikrimiz isbotidir.

Har bir doston alohida mustaqil sujet doirasida ijro etilgan bo‘lsa-da, Go‘ro‘g‘li, G‘irot va epik makon Chambil umumiy asosda dostonlarda yetakchilik qiladi. Ushbu turkumlikdagi dostonlarda Go‘ro‘g‘lining dunyoga kelishidan hayotining so‘nggi kunlarigacha bo‘lgan kurashlari, qahramonliklari va orzu-umidlari badiiy jihatdan yuksak tasvirlangan. Go‘ro‘g‘li hayot faslini tasvirlovchi dostonlarning o‘zi ham bir necha ichki guruhlariga bo‘linadi. Unda qahramonning epik ot G‘irot va qirq yigitga ega bo‘lishi, Chambil yurtiga hukmdorligi, uni dushmandan himoya qilishi, asrandi farzandlari Hasanxon va Avazxonlarni Chambilga olib kelishi, qirq yigiti, nevaralari Ravshan, Nurali, Erali va evarasi Jahongirga bag‘ishlangan dostonlarning mavjudligi, qolaversa, bugungi jonli jarayonlarning nisbatan davom etishida ham ushbu turkumga oid dostonlarning baxshilar tomonidan ijro etilayotganligi, hamda auditoriyaning sevib tinglayotganligi bilan bog‘lanadi.

“Go‘ro‘g‘li” turkumligining baxshi-shoirlar repertuarida mashhurligi va dostonchilik maktablari doirasida sevib ijro etilganligining bir qancha sabablari bo‘lib,

¹¹ Mirzayev T. Dostonlar zubdasi // Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. Doston. Aytuvchi Rahmatulla Yusuf o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchilar T. Mirzayev, Z. Husainova. –T.: Yozuvchi, 1996. 3-bet.

birinchidan, epik qahramon Go‘ro‘g‘li va uning va avlodlari haqidagi epik syujet xalq hayoti, yashash tarzi, orzu umidlari, kurash va intilishlari bilan bog‘liq voqelikni umumlashma bayonda ifodalaganligi bois auditoriyaga qiziqish uyg‘otgan. Ikkinchidan, epik qahramon va uning avlodlari xalq ma‘naviy hayotida ijodiy ta‘sir ko‘rsatganligi epik kuychining repertuarida ommalashuvini ta‘minlabgina qolmasdan, balki nasliy turkumlik doirasida keng tarqalishiga imkon yaratgan.

“Go‘ro‘g‘li” dostonlari xalq dostonchiligida har biri mustaqil yashagan va ayrim-ayrim nomga ega bo‘lgan asarlar silsilasi, muayyan omillar bilan bir-biriga birlashgan kattakon turkum bo‘lib, Yaqin va O‘rta Sharqda juda keng tarqalgan. Bu turkum o‘zbek, tojik, qozoq, qoraqalpoq, tatarlarda Go‘ro‘g‘li; turkmanlarda Go‘ro‘g‘li, Ko‘ro‘g‘li, Qaro‘g‘li, ozarbayjon, gruzin turk va boshqalarda Go‘ro‘gli nomi bilan shuhrat qozongan. Xalq shoirlari Go‘ro‘g‘lini buyuk samimiyat va iftixor bilan ardoqlab, uning xalqqa bo‘lgan mehr-sadoqati, dushmanlarga cheksiz g‘azab-nafrati, mamlakat mudofaasida yovuz bosqinchilarga qarshi ayovsiz kurashlari, el-yurt farovonligi uchun g‘amxo‘rligini zavq bilan kuylaydilar. Turkumga kiruvchi barcha dostonlar ma‘lum bir nisbiy mustaqillikka ega bo‘lib, jonli og‘zaki an‘anada yakka-yakka ijro etilsalarda, ular epik Chambil yurti, Go‘ro‘g‘li, uning jangovar safar yo‘ldoshi G‘irot, bir qator an‘anaviy obrazlar (qirg‘ yigit, Ahmad Sardor, Soqib‘ulbul, parilar va boshqalar) kabi qator vositalar bilan o‘zaro birlashadi.

“Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari kattakon ikki tarmoqqa bo‘linadi. Fanda biri Zakavkaze va Yaqin Sharq versiyalari (ozarbayjon, arman, gruzin, turk va boshqalar) deb yuritilsa, ikkinchisi, O‘rta Osiyo versiyalari (o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, turkman, tojik va boshqalar) deb ataladi. Bu ikki tarmoq. o‘zaro muayyan umumiylikka ega bo‘lsa-da, dostonlarda qamrab olingan voqelik, epik an‘ana va bosh qahramonga berilgan baho, ularning hajmi, sostavi, kuylanish va tarqalish xususiyatlari jihatidan bir-biridan farq qiladi.

O‘rta Osiyo versiyalari, xususan, o‘zbek variantlarida esa, umumlashtirish va ideallashtirishning juda yuqori darajasini ko‘ramiz. Bunda qahramonona o‘tmish konkret tarixiy voqealar sifatida emas, balki mislsiz romantik lavhalarda, xalqning beqiyos ideallari ko‘lamida tasvirlanadi. Hamma narsa - hayot ham, xalq turmushi ham, mavjud zamon yetishtirgan qahramonlar ham ko‘tarinki romantik bo‘yoqlarda, bepoyon badiiy ideal tasavvurlarda, cheksiz obrazlar girdobida gavdalanadi. Ana shu bepoyon ideallik va cheksiz romantika bu dostonlarni yanada real, hayotiy, xalqqa yaqin va davrimizga hamoxang qilgan.

O‘zbek dostonlarida Go‘ro‘g‘li turkman va o‘zbeklarning begi, qonuniy hukmdor, o‘z xalqi, vatani uchun qayg‘uruvchi va uni turli dushmanlar bosqinidan himoya qiluvchi dono murabbiy, ko‘plab xalq botirlarini tarbiyalab etishtirgan yengilmas bahodir sifatida tasvirlanadi. Bosh qahramonga berilgan mana shu bahodan kelib chiqib, Chambil yurtining afsonaviy hukmdori Go‘ro‘g‘lining bahodir qirg‘ yigiti bilan birgalikda ona yerining xavfsizligi va ozodligiga tahdid soluvchi qo‘shni podsholiklarga qarshi olib borgan kurashi Chambil eli, qabila ozodligi uchun olib

borilgan urush tarzida namoyon bo'ladiki, bu o'zbek eposidagi o'ziga xoslikni tashkil etadi.

O'zbek xalqi Go'ro'g'li va uning yigitlari haqida "Kunlarim", "Go'ro'g'li", "Go'ro'g'libek — zo'r botir", "Armoning qolmasin", "Bormi jahonda", "Armonim Qolmadi" kabi termalar bilan bir qatorda, har biri bir yarim-ikki ming satrdan tortib, o'n-o'n ikki ming misrali (qariyb shuncha nasriy qism ham mavjud) ko'plab dostonlar yaratgan. Bu materiallarni qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari o'zbeklar orasida bir-biridan jiddiy ravishda farq qiluvchi ikki versiyada tarqalgan. Bu versiyalarning biri Xorazm "Go'ro'g'li" dostonlari bo'lib, ular turkman versiyasiga juda o'xshash, ozarbayjon "Ko'ro'g'li"siga ancha yaqin turadi. Turkumga birlashgan Xorazm dostonlari yigirmadan ortiq bo'lib, syujeti, ijro usuli va tekstning hajmi jihatidan jiddiy tafovutlarga ega. "Go'ro'g'lining do'rayishi", "Arab tanggan", "Avaz keltirgan", "Avaz uylantirgan", "Avazning ozod etilishi", "Qirq minglar", "Bozirgon", "Kampir", "Xirmon dali", "Gulruh pari" va boshqa dostonlar Xorazm "Go'ro'g'li" turkumini tashkil etadi.

O'zbekistonning Xorazmdan bo'lak yerlarida tarqalgan "Go'ro'g'li" dostonlari ham alohida mustaqil bir versiyani tashkil etib, bu versiya hajmining kattaligi, ijro usuli bilan ajralib turadi. Har ikki versiyada bosh qahramonning umumiy faoliyatida va bir qancha motivlarda o'xshashlik ko'zga tashlanadi. Ammo alohida olingan dostonlarda o'xshashlik deyarli yo'q, ya'ni birida bo'lgan doston (masalan, "Xirmon Dalli") ikkinchisida, ikkinchisidagi (masalan, "Ravshan") birinchisida mavjud emas. Versiyalar orasida bu darajada jiddiy ayirmalarning mavjudligi turkumga birlashgan dostonlarning muayyan qismi ikki joyda, ikki xil ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yaratilganligi va mustaqil rivojlanishda davom etganligini ko'rsatadi. Xorazmdan boshqa joylardagi o'zbeklar orasida tarqalgan "Go'ro'g'li" dostonlari qirqdan ziyoddir. Baxshilar og'zidan yuzdan ortiq "Go'ro'g'li" dostonlari variantlari bilan yozib olindi.

Dostonning asosiy obrazi-Go'ro'g'li xalqimizning milliy qahramoni sifatida hamisha ommani yuksak ydeallar sari chorlab kelgan. Xalqni birlashtiruvchi ezgu quvvat timsoliga aylangan. "Go'ro'g'li" dostonlari mag'zida xalqimiz tarixi o'ziga xos timsoliy aks ettirilgan deb ayta olamiz. Tom ma'noda "Go'ro'g'li" o'zbek xalqining mifo epik tarjimai holi, badiiy holatdagi tarixiy xotirasidir. Chunki o'zbek xalqining qadimiy hayoti, ko'hna tasavvurlari, badiiy tafakkurining taraqqiyot yo'li, boshqa ma'naviy qadriyatlar qatorida "Go'ro'g'li" dostonlarida ham namoyondir. "Go'ro'g'li" dostonining genezisi va rivojlanish bosqichlarini ilmiy tadqiqi etish, doston mavjud manbalrni aniqlash, eposning mifologik asosdan badiiy estetik o'zanga ko'chishi qay yo'sinda kechganligini bevosita tasavvur qilish va qayta tiklash imkonini beradi. Sinchiklab tadqiq etilsa, aksariyat xalq dostonlarining negizini qadim miflar tashkil qiladi. Bu dostonlar syujeti, yetakchi motivlarning tub ildizini, semantik va struktural jihatdan tadqiq etilsa, bugungi kunda deyarli unutilgan o'zbek-turkiy mifologik olam ko'z

o'ngimizda qayta tiklanadi. "Go'ro'g'li" dostonlarining ibtidosi va intihosi shunday: qahramon go'rdan chiqib, g'orga kirib ketadi"¹²

Go'ro'g'li turkumi dostonning o'ziga xos xususiyati yana shundan iboratki, ota, o'g'il, nevara shajarasi asosida voqealar beriladi. "Ravshan" dostonida ham nasliy shajara davom etgan. Go'ro'g'li - Hasan –Ravshan: Go'ro'g'li – Avaz –Gulanor.

"Ravshan" otashin va samimiy muhabbatni kuylovchi, pok va haq islomiy e'tiqod yo'lida sobit tura oladigan iymonli kishilarni madh qiluvchi, ezgulikni, mardlar va botirlikni ulug'lovchi, zulm va zo'ravonlikni, adolatsizlikni qoralovchi asardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O'qituvchi, 2002.
2. Imomov K va bosh. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: O'qituvchi, 1990.
3. Mirzayev. T. Xalq baxshilarining epik repertuari - T.: Fan, 1978.
4. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. –Т.: Фан, 2008.
5. Mirzayev T. Sarimsoqov B. Doston, uning turlari va tarixiy taraqqiyoti // O'zbek folklorining epik janrlari - T.: Fan, 1981.
6. Mirzayeva S. Romanik dostonlar poetikasi. -T.: Fan, 2004.
7. Turdimov Sh. "Go'ro'g'li" dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. -T.: Fan, 2011.

¹² Turdimov Sh. "Go'ro'g'li" dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. -T.: Fan, 2011. 5-bet.